

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

“Iqtisodiyot” fakul’teti

“Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasи

Ro‘yxatga olindi

№ _____

“TASDIQLAYMAN”

**O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
dots. O.N.Bozorov**

2022 yil “___” _____

2022 yil “___” _____

**“MINTAQAVIY RIVOJLANISH
STRATEGIYASI”**

FAN SILLABUSI

Bilim sohasi: **300000 - Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot**

Ta’lim sohasi: **310000 - Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar**

**Magistratura
mutaxassisliklari:** **70310301 - Mintaqaviy iqtisodiyot mutaxassisligi
2-kurs magistrantlari uchun mo‘ljallangan**

QARSHI – 2022 yil

Ushbu fan sillabusi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Kengashining 2022 yil _____
dagi № _____ -sonli yig‘ilish qarori bilan tasdiqlangan namunaviy dastur asosida
tuzilgan.

Tuzuvchi:

Fayziyeva SH.SH.

- “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasи dotsenti, i.f.n.

Fan sillabusi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasining **2022 yil “22” avgustdagи № 01 - son** yig‘ilishida muhokamadan o‘tgan va “Iqtisodiyot” fakulteti Uslubiy Komissiyasida **2022 yil “24” avgustdagи № 01 - son** yig‘ilishida muhokama qilinib, tasdiqlangan.

Institut Uslubiy Kengashining **2022 yil “29” avgustdagи № 01 - son** yig‘ilishi qarori bilan o‘quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

O’quv - uslubiy boshqarma boshlig’i

dots. Sh.R.Turdiyev

**“Iqtisodiyot” fakul’teti uslubiy
komissiyasi raisi:**

dots. A.B.Qurbanov

“Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasи mudiri:

prof. S.N.Xamrayeva

FAN SILLABUSI

QARSHI MUHANDISLIK- IQTISODIYOT INSTITUTI

“Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi” fani sillabusi

Fan (modul) kodi REGDS7,5	O‘quv yili 2022-2023	Semestr 3	ECTS krediti 4
Fan (modul) turi Majburiy fan	Ta’lim tili o‘zbek		Haftalik dars soati 4
Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim	Jami yuklama
Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi	60	60	120

O‘qituvchi haqida ma’lumot

Kafedra nomi	Innovatsion iqtisodiyot		
O‘qituvchilar	F.i.sh.	Telefon nomeri	e-mail
Ma’ruzachi	Fayziyeva Shirin Shodmonovna	+998 93 4248514	fayzieva_shirin@mail.ru
Amaliy mashg‘ulot	Fayziyeva Shirin Shodmonovna	+998 93 4248514	fayzieva_shirin@mail.ru
Laboratoriya mashg‘uloti	-	-	-

I.Fanning mazmuni va maqsadi

Iqtisodiyot rivojlanar ekan, aholi, turmush darajasi, qashshoqlik va daromadlarni qayta taqsimlashda o‘zgarishlar bo‘ladi. Shu sababli, turli mamlakatlarda aholi soni va tuzilishidagi o‘zgarishlar va rivojlanishning boshqa ta’sirlari o‘rganiladi.

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarga mahalliy iqtisodiy salohiyatni aniqlovchi omillarni va iqtisodiy rivojlanish siyosati to‘g‘risida chuqur tushuncha berish bilan birga, iqtisodiy ko‘rsatkichlarni (innovatsiyalar va inson kapitalidan tortib, bilimlarni tarqatish va global tarmoqlargacha) turli xil makro va mezo omillarini aniqlash uchun mahalliy va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning turli xil nazariyalari va yondashuvlari bo‘yicha yo‘nalish profiliga mos bilim va malaka shakllantirishdir.

Fanni vazifasi – mahalliy salohiyat xususiyatlarini hisobga olgan holda iqtisodiy rivojlanish siyosatini yuksaltirish bo‘yicha vazifalarini mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan mushtarak holda amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgatishdan iborat.

II. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

• “Mintaqaviy rivojlanish strategiyasi” fanini o‘zlashtirish jarayonida bakalavr quyidagilar bo‘yicha nazariy **bilimga ega bo‘lishi kerak**:

- Fan buyicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga quyidagi talablar qo‘yiladi.

Talaba:

- mintaqqa iqtisodiyotning rivojlanish holati, mintaqada davlat va jamiyat qurilishi tizimini amal qilishini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari, hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning o‘rnatalishi, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari, ishlab chiqarish resurslari holati, ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, mintaqada ta‘lim tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini ***biladi va ulardan foydalana oladi***;
- mintaqada erkin iqtisodiy hududlarning tutgan o‘rni, mintaqada valyuta – moliya va kredit munosabatlari, mintaqada xalqaro iqtisodiy integratsiyani takomillashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha amalga oshirilayotgan istiqbolli va strategik muhim ***loyihalarni amalga oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi***;
- mintaqaning rivojlanishida xalqaro tashkilotlarning roli, mintaqaning jahon xo‘jaligining globallashuv jarayonlaridagi ishtiroki, kuzatishlar natijasida olingan ma’lumotlarni tizimlash va qayta ishlash; ma’lumotlarni qayta ishlash natijalarini umumlashtirish va tashkil qilish ***ko‘nikmalariga ega bo‘ladi***;
- mintaqqa iqtisodiyoti sohalarida tadbirkorlik ishini tashkil qilish va uni boshqarish, bajarayotgan faoliyat bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, mintaqada korxonalar iqtisodiyoti faoliyatini o‘rganish; iqtisodiyot sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarini amaliyotda keng qo‘llash, iqtisodiyot sohalarida faoliyat olib boradigan tadbirkorlarni biznes rejasini ishlab chiqish, berilgan mavzu bo‘yicha axborotlarni to‘plash, ishlov berish, o‘rganish va tizimlashtirish, mamlakatimiz va xorijiy davlatlarda iqtisodiyot sohalarida erishilgan fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o‘rganish, internet tarmog‘idan iqtisodiyot sohalaridagi eng yangi fan-texnika yutuqlari haqidagi ma’lumotlarni to‘plash bo‘yicha ***malakalarga ega bo‘lishi kerak***.

Bundan tashqari talabalar o‘zlarini qiziqtirgan mavzu bo‘yicha tadqiqot savollarini shakllantirishlariga olib keladi.

III. Ta‘lim berish usullari va ta‘lim texnologiyalari

Darsda quyidagi o‘quv usullari va shakllari qo‘llaniladi:

- ma’ruzalar
- amaliy mashg‘ulotlar
- o‘qituvchilarning maslahatlari
- mustaqil ish
- interfaol keys-stadilar
- taqdimotlar
- esse yozish
- guruhlarda ishlash
- individual loyihalar

Talabalar darslarda qatnashishdan oldin bir qator tayyorgarlik darslarini bajarishlari kerak.

IV. Kreditlarni olish uchun talablar

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayorlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha test yoki yozma ishni topshirish.

V. Fan tarkibi (ma’ruza mashg‘ulotlari)

Dars	Mavzular	Ma’ruza mashg‘ulotlar rejasi	Ma’ruza mashg‘ulotlari
1	Mintaqaviy	Mintaqada ilmiy-tadqiqot sohasini	4

	rivojlanishning istiqbollari	rivojlantirishning fundamental yo‘nalishlari. Ilmiy salohiyatni oshirishning asosiy talabları. Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimining tashkil etilishi. Mintaqada yaratilgan ilmiy maktablar va ularni takomillashtirish. Mintaqada sohalar bo‘yicha ilmiytadqiqot muassasalari faoliyatini rivojlanish. Ilmiytadqiqot tizimida xorij tajribalarini qo‘llashning ahamiyati. Mintaqaviy rivojlanishning istiqbollarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarining amalda qo‘llanilishi va ahamiyati.	
2	Mintaqa sanoat tizimini rivojlanirish yo‘nalishlari va imkoniyatlari	Mintaqaning xom-ashyo resurslari va ularning joylashuvi. Mintaqada qayta ishslash tizimining tashkil etilishi. Mintaqada yengil sanoatning faoliyati va istiqbollari. Mintaqa og‘ir sanoati rivojlanishining imkoniyatlari va joylashuvi. Oziq-ovqat sanoatining tashkil etilishi va rivojlanish istiqbollari.	4
3	Mintaqada erkin iqtisodiy hududlarning tutgan o’rni	“Erkin iqtisodiy hudud” (EIH) tushunchasi. Mintaqada erkin iqtisodiy hududlar, ularning funktsiyalari va turkumlanishi (klassifikatsiyasi). Erkin iqtisodiy hududlar tajribasi. Erkin iqtisodiy hududlarning asosiy ko‘rinishlari. Erkin iqtisodiy hududlarni yaratishning AQSH, Xitoy modellari va ularning xususiyatlari. Moliyaviy va ma’muriy tadbirlar. Erkin iqtisodiy hududlarda joriy etiladigan imtiyozlar. Savdo EIHLari. Texnoparklar.	4
4	Mintaqada valyuta – moliya va kredit munosabatlari	Milliy va mintaqaviy valyutalar tizimidagi asosiy qonun-qoidalar. Valyuta bozorlari, ularning funktsiyasi, turlari. Xalqaro kredit munosabatlarning mohiyati, mazmuni. Suzib yuruvchi va fiksatsiya qilingan valyuta kurslari. Valyuta operatsiyalari, ularning ko‘rinishi. Valyuta pozitsiyasini shakllari. Valyutani cheklanishi, uning ko‘rinishlari. Valyuta tavakkalchiligi. Valyuta tavakkalchiligini sug‘ortalash. Xalqaro moliyaviy kredit tashkilotlar. Xalqaro valyuta fondi (XVF), uning funktsiyalari. Xalqaro bank guruhlari: Evropa taraqqiyot va qayta tiklash banki (ETTB), Osiy rivojlanish banki (ORB) va boshqalar.	4
5	Mintaqada xalqaro iqtisodiy integratsiyani takomillashtirish yo‘nalishlari	Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, ko‘rinishlari. G’arbiy Evropa integratsiyasining rivojlanish bosqichlari. Evropa Ittifoqi tashkilotlarining tashkil topish mexanizmlari. Evropa bo’shilg‘i. Shimoliy Amerika integratsiya yo‘li (NAFTA). Tayanch okeani hamkorligi tashkilotining tashkil topishi. Sharqiy Evropa integratsiyasining vazifalari. Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi (MDH) mamlakatlari doirasidagi integratsion jarayonlar. Xalqaro tashkilotlar klassifikatsiyasiga umumiy tavsif. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tizimiga kiruvchi iqtisodiy tashkilotlar va ularning	4

		vazifalari. Xalqaro moliya-valyuta va kredit tashkilotlar. O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy tashkilotlarda qatnashishi.	
6	Mintaqaning rivojlanishida xalqaro tashkilotlarning roli	<p>Xalqaro tashkilotlarning paydo bo'lish jarayoni. Xalqaro tashkilotlarning tasniflanishi. Global va hududiy tashkilotlar. Hukumatlararo va nohukumat iqtisodiy tashkilotlar. BMT va uning tizimi. Xalqaro tashkilotlarning o'z faoliyatini qayta qurishi.</p> <p>Savdo va tariflar bo'yicha Bosh kelishuvning imzolanish sabablari. Savdo va tariflar bo'yicha Bosh kelishuvning tamoyillari, vazifalari va tuzilmasi. Savdoni global erkinlashtirish jarayoni. GATT maqsadlari va funktsiyalari. O'zbekiston Respublikasining BSTga kirishi.</p> <p>Butunjahon savdo tashkiloti (BST)ni tashkil etilishi va uning GATTdan farqi. BSTning tamoyillari maqsad va vazifalari. UST tuzilmasi va faoliyati. Butunjahon savdo tashkiloti-mamlakatlar va hududlar o'rutasida tovar oqimlarini tartibga solish muammolari bilan shug'ullanuvchi eng salmoqli tuzilma sifatida. Xalqaro investitsiyalarni kafolatlash agentligi, Xalqaro hisob-kitoblar banki, Xalqaro valyuta fondi, Birlashgan millatlar tashkiloti va uning ixtisoslashgan muassasalari.</p>	4
7	Mintaqaning jahon xo'jaligining globallashuv jarayonlaridagi ishtiroki	<p>O'zbekiston Respublikasining XX-XXI asrlar bo'sag'asidagi resurslari (tabiiy, inson, ilmiy-texnikaviy va ishlab chiqarish) va rivojlanish imkoniyatlari.</p> <p>Mustaqillik yillardagi respublikaning iqtisodiy ahvoli. Global miqyosdagi iqtisodiy inqirozlarni bartaraf etishdagi qiyinchiliklar.</p> <p>Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri muammolari. O'zbekistomni jahon xo'jaligiga qo'shilishi. Respublikani iqtisodiy rivojlanish istiqbollari.</p> <p>Xalqaro savdoda respublikani ishtiroki. Moliya tizimi, pul-kredit siyosati. Moliya bozorlarini tashkil topishi. O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan olib borayotgan tashqi iqtisodiy munosabatlari.</p> <p>Mintaqani jahon iqtisodiyoti va integratsiyasida ishtiroki. Mamlakatning iqtisodiy o'sishini ta'minlashdagi strategik yo'nalishlari va tamoyillari. Xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlik munosabatlari.</p>	6
Jami			30

VI. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar

Nº	Mavzular	soat
1	Mintaqaviy rivojlanishning istiqbollari	4
2	Mintaqa sanoat tizimini rivojlantirish yo'nalishlari va imkoniyatlari	4

3	Mintaqada erkin iqtisodiy hududlarning tutgan o'rni	4
4	Mintaqada valyuta – moliya va kredit munosabatlari	4
5	Mintaqada xalqaro iqtisodiy integratsiyani takomillashtirish yo'nalishlari	4
6	Mintaqaning rivojlanishida xalqaro tashkilotlarning roli	4
7	Mintaqaning jahon xo'jaligining globallashuv jarayonlaridagi ishtiroki	6
	Jami	30

Laboratoriya mashg'ulotlari

Laboratoriya mashg'ulotlari rejalashtirilmagan

VI. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llannalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bilimlari yoki mavzulari ustida ishslash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy (distansion) ta'lif;
- referatlar yozishni standart talablarga mos ravishda va hisoblash texnikasidan foydalanib mustaqil bajarishni o'z ichiga oladi.
- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tayyorlash va h.k..

Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Mintaqaviy rivojlanishning istiqbollari
2. Mintqa sanoat tizimini rivojlantirish yo'nalishlari va imkoniyatlari
3. Mintaqada erkin iqtisodiy hududlarning tutgan o'rni
4. Mintaqada valyuta – moliya va kredit munosabatlari
5. Mintaqada xalqaro iqtisodiy integratsiyani takomillashtirish yo'nalishlari
6. Mintaqaning rivojlanishida xalqaro tashkilotlarning roli
7. Mintaqaning jahon xo'jaligining globallashuv jarayonlaridagi ishtiroki

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

VII. Talabalar bilimini baholash mezonlari va kreditlarni olish uchun talablar

Fanga oid nazariy materiallar ma'ruza mashg'ulotlarini ma'ruzalarda ishtirok etish va kredit-modul platformasi orqali ma'ruzalarni mustahkamlash hamda belgilangan test savollariga javob berish orqali amalga oshiriladi.

Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilish va o'zlashtirish mashg'ulotlarga to'liq ishtirok etish va modul platformasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazorat qilinadi.

Mustaqil ta’lim mavzulari modul platformasi orqali berilgan mavzular bo‘yicha topshiriqlarni bajarish (test, referat va boshqa usullarda) bajariladi.

Fan bo‘yicha talabalalar test usulida oraliq nazorat va og‘zaki (yoki test) usulida yakuniy nazorat topshiradilar.

Talabalar bilimi O‘zbekiston Respublikasi OO‘MTVning 2018 yil 9 avgustdagи 9-2018-sон buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi Nizom” asosida baholanadi.

Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a’lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o‘zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Yakuniy nazorat turini o‘tkazish va mazkur nazorat turi bo‘yicha talabaning bilimini baholash o‘quv mashg‘ulotlarini olib bormagan professor-o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Fan dasturida berilgan baholash mezonlari asosida fanni o‘zlashtirgan talabalarga tegishli ta’lim yo‘nalishi (magistratura mutaxassisligi) o‘quv rejasida ushbu fanga ko‘rsatilgan kredit beriladi.

Fanning yakuniy bahosi uchta yo‘nalishdagi baholarga asoslanadi:

(1) Dars mashg‘ulotlariga tayyorgarlik va faol ishtirop etish (10%).

Dars jarayonida muntazam ishtirop etishdan tashqari, talabalar darslar boshlanishidan oldin onlayn o‘quv materiallari bilan tanishgan bo‘lishlari talab etiladi. Har bir talabadan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda faol ishtirop etish talab qilinadi.

(2) Auditoriyadagi mashg‘ulotlar (10%)

Har haftada o‘tilgan ma’ruzalar asosida 30 soatlik amaliy mashg‘ulot o‘tkaziladi. Har bir amaliyot mag‘ulot bo‘yicha topshiriqlar keyingi dars mashg‘ulotiga qadar bajarilib topshirilishi lozim. Amaliy mashg‘ulotda berilgan topshiriqlarni bajarish.

(3) Yakuniy baholash (80%) (Baholash turi, vaqt, baholash mezonlari)

Talabalar bilimini baholash tizimi

A (93-100)

A- (86-92)

B+ (82-85)

B (77-81)

B- (71-76)

C+ (67-70)

C (60-66)

C- (56-59)

D (55 -50)

E (0 – 49)

VIII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rghanish bo'yicha ilmiy-ommabop risola. -T.:OO'MTV, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. 2022 yil 28 yanvar
3. Kvint V.L. Strategiyalash nazariyasi va amaliyoti: dayjest./ V.L.Kvint. Toshkent: Tasvir, 2018, -160 b.
4. To'xliyev N., Haqberdiyev Q., Ermakov Sh., Xolmatov N. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari.-T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2006. 280 b.
5. Беркинов Б.Б., Каланов Б.З. и др. Национальная экономика.: учебное пособие.-Т.: ТГЭУ, 2010. 583стр.
6. Албекова И.М., Емцов Р.Г., Холопов А.В. Государственная экономическая политика.-Москва МГУ Изд."Дело и сервис", 1998 -320 стр.
7. Харченко Е.В., Вернакова Ю.В. Государственное регулирование национальной экономики: учебное пособие.-М.КНОРУС, 2011. 328 с.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-T.: O'zbekiston, 2018.-76 b.
2. O'zbekiston strategiyasi. Taraqqiyot strategiyasi markazi. Ijtimoiy – tahlil jurnali. 2018 y. 1-2-3-sonlari. www.strategy.uz.
3. Berkinov B.B. Institutsional iqtisodiyot: Darslik. 3-nashr, qayta ishlangan. – Т.: Iqtisodiyot, 2018.-226 b.
4. Ishmukamedov A.I., Asqarova M.T. "O'zbekiston milliy iqtisodiyoti". O'quv qo'llanma. -T. TDIU,2004.-286 bet.
5. Нуриев Р.Н. Социально-экономический потенциал устойчивого развития. Учебник."Университетская книга", 2008, -1120 стр.
6. Ломакин В.К.. Мировая экономика. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008. -735 б.
7. Кудров В.М. Мировая экономика. – М.: Дело 2008.-528 б.
8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11 (6705)
9. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 29 b.
10. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 47 b.
11. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 485 b
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
13. Mirziyoyev SH.M. Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 7 fevralda bo'lib o'tgan majlisida ma'rzasidan "**2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning harakatlar strategiyasi**" "Xalq so'zi" gazetasi, 08.02.2017

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Agrar ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020 yil 30 iyuldaggi PQ-4795-sonli qarori.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. 2020 yil 23 sentabr

Axborot manbalari

1. www.web-of-science.com.
2. www.economics.ru.
3. www.lex.uz.
4. www.ziyonet.uz.
5. www.market.ing.ru.
6. www.stat.uz. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасирасмий сайти.
7. www.ekonomics.uz
8. www.ved.ru
9. www.ser.uz
10. www.tdiu.uz
11. www.bank.uz
12. www.unese.org/env/esd/ – BMTning iqtisodiyot komissiyasi sayti

